

**MANAVIYAT KITOBDAN BOSHLANADI**

*Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtko'l tumani 45-umuta'lim maktabi*

*kutubxonachisi*

***Aliyeva Fazilat***

“Yaxshi yashayman desang, har kuni kitob o'qi.”

Sh.Mirziyoyev

Annotatsiya: Ushbu maqolam orqali kitobning bugungi kundagi o'rni va ahamiyati katta ekanligini aytib o'taman. Kitob - inson tafakkurini oshiradi, dunyoqarashini kengaytiradi. Kitobsiz taraqqiyotga, yuksak ma'naviyatga erishib bo'lmaydi. “Kitob o'qimagan odamning ham, millatning ham kelajagi yo'q“ deb bejiz aytmagan dalatimiz rahbari. Hech bir vosita kitob o'rnini bosa olmaydi. Yangi O'zbekiston barpo qilishni maqsad qilib olgan ekanmiz kitob mutoalasi biz uchun beqiyos yordamchidir.

Kalit so'zlar: kitob, insoniyat, film, innovatsiya, ma'naviyat, odam, tafakkur

“Kitob o'qigan odam televizor ko'rgan odamni boshqaradi”-degan maqol bor. Darhaqiqat, kitob inson tafakkurini oshiradi, dunyo qarashini kengaytiradi. Hayotda duch keladigan muammolarga oson yechim topa oladi. Tan olish kerak hozirgi shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonda olamning imkonyatlari cheksiz. Butun olam “o'rgimchak to'ri” deb atayotgan internetsiz hayotimizni tasavvur qila olmaymiz. Dunyo hardoim rivojlanib borgan. Kashf etilayotgan narsalarning hammasi bashariyat uchun xizmat qiladi va hech kimni bee'tibor qoldirmaydi. Insoniyat yangiliklarga intiladi. Yangi narsalardan foydalanishni, bahramand bo'lishni hohlaydi. Lekin kitob o'qish boshqalarni kitobxonlikka da'vat etish hamma zamonda ham dolzarb mavzu bo'lib qoladi. Insonda ma'naviyat degan tuygu bor. Insonni ma'naviyatini nima boyitadi? U ma'naviy boylikni

qayerdan oladi? Uning tafakkurini nima charxlaydi? Bu vazifalarni bajarishda kitobning o'rni beqiyosdir.

“Kitob o'qigan odam televizor ko'rgan odamni boshqaradi”.

Deylik siz bironta asarni o'qib chiqgansiz. Asar voqealari, sizning tasavvuringizda, ko'z oldingizda turibdi. Endi shu asar asosida olingan filmni tomosha qilyapsiz. Har qanday tajribali, mahoratli rejissyor ham asarni to'lig'icha yuz foiz sahnaga olib chiqsa olmaydi, qahramonlar his-tuyg'ularini yoritib bera olmaydi. Film boshlangandan sizda tanqidiy fikrlar paydo bo'la boshlaydi. Bosh qahramon qiyofasidan norozi bo'lasiz. Sizga yoqqan bironta epizod asardan olib tashlanganini ko'rib hafsalangiz pir bo'ladi. Film tugaguncha shunday fikrlar qurshovida qolasiz. Lekin bu asarni o'qimagan odam ushbu filmni mazza qilib tomosha qiladi. Juda ta'sirlanadi.

Xo'sh endi aytingchi qaysi biri tarozida tosh bosyapti: kitobmi? Filmni? Insondagi hamma narsa tarbiyaga muhtoj: vujud ham, fe'l-atvor ham, tafakkur ham. Inson tafakkuri tarbiyachisi esa bu kitobdir! Bizni borliqdagi jamiyki jonzotlar, tirik mavjudotlardan ajratib turuvchi omil esa tafakkurdir! Dunyoda yetti mo'jiza borligini barchamiz yaxshi bilamiz.

Adabiyotshunos olim O.Sharafiddinov kitobga ulardan ham oldin paydo bo'lgan “birinchi mo'jiza” deb tarif beradi. Mashhur Avstriya yozuvchisi Stefan Sveygesa kitobning kashf etilishini g'ildirakning kash fetilishiga tenglashtiradi. Yangi O'zbekiston barpo qilishni maqsad qilib olganimiz bir paytda kitob mutolaasi biz uchun beqiyos yordamchidir.

Kitobxonlikni targ'ib qilish uchun juda katta ishlar qilinmoqda. Ko'rik tanlovlari, bellashuvlar o'tkazilmoqda. Bu harakatlar albatta tahsinga sazavordir. Hech bir vosita kitob o'rmini bosa olmaydi.....

Kitobga oshnolik yosh avlodning chuqur bilimli, yuksak aql-zakovatli barkamol shaxslar bo'lib, voyaga yetishida muhim ro'l o'ynaydi. Shu bois, bugungi kunda kutubxonalarining moddiy –texnik bazasini mustahkamlash, yangi kitob va zarur o'quv qo'llanmalari, zamonaviy elektron darsliklar bilan boyitishga alohida etibor qaratilmoqda. Kitobning inson hayotidagi o'rni beqiyos ekanligini har bir

insonning hayotida yashashdan maqsadi bo'lishi kerakligini alohida ta'kidlash zarur.

Kitob o'qish farzandlarimiz kelajagidir!

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Sh.Mirziyoyev, Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.-Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2018.-592b.

2. Sh. Mirziyoyev, Yangi O'zbekiston. Demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanoqda. - Toshkent: O'qituvchi MU MChJ, 2021. 184 b.